

XIVA XONLIGI KANSELARIYASINING YER EGALIGI VA SOLIQ TIZIMINI TADQIQ QILISHDAGI AHAMIYATI

Ro`zmetova Roziyajon Baxram qizi

Ma`mun-Universiteti NTM

Tarix va psixologiya kafedra o`qituvchisi

Ma`lumki taddiqotchilar O`rta Osiyo xalqlari va o`lkalarining o`tmishini o`rganish sohasida so`nggi davrlargacha katta qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki tarixchilar qo`lida na uzoq asrlarga va na so`nggi zamonlarga doir yozma hujjatlar va haqiqiy hujjatlar yo`q edi.

Akademik V.V.Bartold aytishicha, muslimon olamida tarix hech bir joyda bevosa arxivdan olingan hujjatlar asosida yozilgan emas. Akademik I.Yu.Krachkovskiy ta`kidlashicha ham, sharq tarixchilari oldidagi jiddiy qiyinchilik bular tekshirgan mamlakatlarning ichki hayotini tasvirlovchi hujjatlardan foydalanish imkoniyati yo`qligi edi.

P.P.Ivanov va M.Yo`ldashevning Xiva xonlari arxivi ustida olib borgan tadqiqotlari natijasida Sharq hayotidagi butun bir tarixiy davrni yangicha yoritishga muvaffaq bo`lindi. Endilikda XIX asrda O`rta Osiyoda yirik feodal davlatlardan biri hisoblangan Xiva xonligining arxivi ham topilib, tavsiflandi. Turli-tuman hujjatlardan iborat bo`lgan bu kolleksiya o`n bir ming varaqdir.

Arxiv Xiva xonligidagi yer egaligi va davlat tuzilishi masalalarini chuqur tekshirishga imkon beradi. Bu arxiv hujjatlari o`n bir ming varaqdan iborat bo`lib, u Leningradda Saltikov-Shedrin nomidagi Davlat xalq kutubxonasining fondlarida va SSSR Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining fondlarida chorak kam bir asr saqlanib kelingan. 1940-yilda P.P.Ivanov bu arxivni o`shavaqtida ma`lum bo`lgan hajmda ro`yxatga olib va tekshirib chiqqan. Ammo SSSR Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institute fondlarida shu arxivga doir yangi hujjatlarni biz topganimizdan keyin bu arxivning o`sha vaqtda to`la hajmda bo`Imaganligi aniqlangan. P.P.Ivanov shu materiallarning faqat bir qisminigina topib ro`yxatga olgan. Bundan tashqari, arxiv hujjatlariga taalluqli ayrim muammolarni ishlab chiqishni o`z oldiga vazifa qilib qo`yan emasdi. Fanga hali uncha ma`lum bo`Imagan va butunlay noma`lum bo`lgan materiallarni o`rganishga asoslanib, XIX asrning o`ttizinchi va saksoninchi yillardagi Xiva xonligining yer egaligi va davlat tuzilishi qay taxlitda ekanligini ko`rsatib berish asosiy vazifalardan bo`lib, bunga sabab bu davrda davlatning , xalqning asosiy boyligi yer edi.

Xiva xonligida yer egaligiga oid ilmiy adabiyotda bo`lgan ma`lumotlarning hammasi XIII, XV asrlarda yoki XIX asrda uchraydigan ba`zi adabiyotlarda tasodifiy va qisqa mulohazalardan iboratdir. Yer egaligi masalalariga oid maxsus asar faqatgina O.Shkapskiyning “Amudaryo ocherklari” nomli asari mavjud bo`lib, bu asarda ham afsuski, butun Xiva xonligi emas balki unchalik katta bo`Imagan Sho`raxon uchastkasidagi va shunda ham asosan mustamlaka davridagi chor

hukumatining yuritgan siyosat haqida ma`lumot olishimiz mumkin. Garchi asarda bir munkha qimmatli ma`lumotlarni to`plagan bo`lsa ham, lekin butun Xiva xonligidagi yer egeligi sistemasini ko`rsatib berish uchun unchalik to`g`ri kelmaydi. Xiva xonligidagi yer egaligi munosabatlariiga oid haqqoniy ma`lumotlarni biz Xiva xonlari arxivi orqali olishimiz mumkin. Shuningdek arxiv ma`lumotlarini o`rgangan olimlarning asarlari bizlar uchun qimmatli ma`lumot hisoblanadi.

Bilamizki, Xiva xonligini mahalliy kishilar emas, XVI asrda ko`chmanchi chorvador o`zbeklar kelib tashkil etgan. Ularning ijtimoiy-siyosiy tuzumi feodalizm edi. A.L.Kunning qo`lyozmalaridan ma`lum bo`lishicha, Xiva xonligidagi Qo`ng`irotlar urug`idan tashqari o`zbek urug`larining hammasi “Buxoro va Qo`qon xonliklarida yashovchi aftidan, siyosiy o`zgarishlar sababli bu yerga kelib qolgan o`zbek urug`larining qoldiqlaridir. Bu uncha kata bo`Imagan urug`lar quyidagilardan iborat: mang`itlar, qatag`onlar, do`rmonlar, uyg`urlar, naymanlar, qipchoqlar, qiyotlar, uyshun, oyratlar”[1]

Ko`chmanchi o`zbek urug`i o`troq bo`lib joylashgan hudud kent deb ataladi. Ayrim o`zbek uruglariga bir necha urug` bo`ysundirilganligi, ya`ni vassal qilib qo`ylganligi, sababli bir kent hududida bir nechta urug` yashashi mumkin. Kentning katta-kichikligi urug`ning ahamiyatiga va shu urug`ga bo`ysundirilgan boshqa urug`larning soniga bog`liq edi. Urug` boshliqlari kent yerlariga uzoq vaqt davomida xo`jayinlik qilib kelganliklari sababli, tabiydirki o`zbek urug`lari o`rtasida dehqonchilik uchun mos yerlarning taqsimlanganligi urug` boshliqlarining kent yerlariga xo`jayinlik qilishdan iborat yozilmagan huquqlari rasmiy tus oldi. Oradan bir yarimcha asr o`tib urug` boshliqlari kent yerlarini Abulg`ozining buyrug`i bilan batamom o`zlariga o`tkazib oldilar va shu tariqa mazkur yerkarga xo`jayinlik qilmoq uchun xonning yozma buyrug`iga asoslangan huquqqa ega bo`lib qoldilar.

Muhammad Rahimxon qadimdan hukmron bo`lib kelgan inoqlarning hukmronligini tugatib, o`zining “asl zotligi” bilan faxrlanib kelgan va eski tartibni orzu qilib yurgan kishilarning hammasini o`zidan hamda har qanday boshqaruv ishlaridan chetda tutishga intildi. Murovyevning (1819) aytishicha, “har bir urug`da inoqning o`zi biylar va shu kabilardan iborat iborat 32 ta amaldor shaxs bo`lgan. Ular alohida huquqlarga, imtiyozlarga hamda vazifalarga ega bo`lganlar va izzat-hurmat qilinib kelganlar Muhammad Rahimxon ularning boshqarish usulini tugatadiyu, lekin xalqni o`ziga qarshi oyoqlantirmaslik uchun faqat unvonlarnigina saqlab qoldi, urug`larga qarashli yerkarni va mazkur kishilarning yer - “mulklarini ham o`zlariga qoldirdi”. Binobarin, urug`larning hukmronligi bekor qilindi, ya`ni “urug`larning yerkarni urug` boshliqlarining xususiy mulki” deb e`lon qilindi.

Ma`lumki, Xivada ayrim urug`larning o`troqlikka o`tish jarayoni (bu jarayon ko`proq o`zbeklardan boshqa urug`larda ko`proq kuzatildi) XIX asrda ham kuzatildi. Aholi ko`chirilayotganda ularga muayyan hudud ajratib berilgan. Bu yerni taqsimlash esa urug` boshliqlari huquqiga kirardi. Urug` boshliqlari bu yerkarni xoxlaganicha taqsimlab, shu tariqa mazkur yerkarning ko`pchilagini o`zlariga o`tkazib olar edilar. Bu ma`lumotlar dehqonlarning ahvoli yaxshi emasligidan darak beradi.

Natijada aholi orasida turli xil tartibsizliklar, ochlik va yuqumli kasalliklar ko`plab tarqalishi, aholi o`z joylarini tashlab ketishi aholi sonining kamayib ketishiga olib keladi.

Bu haqda Munis shunday ma`lumot keltiradi “mana shunday mudxish vaqtarda qishloqlar va ekinzorlarga, to`qayzorlarga va chakalakzrlarga, ko`llar esa qamishzor, botqoqliklarga ayalanib keta bergen”.[2] V. Bartold ma`lumotiga ko`ra esa “Xivada imoratlarning hammasi vayron bo`lib ketgan; aholining soni kamayib – qishloqlarda 40, ba`zi ma`lumotlarga qaraganda 15 ga yetar-yetmas oila qolgan; juma namoziga ba`zan 3 – 4 kishi to`planar edi”[3].

Bu davrda jamiyatdagi feodallarning siyosiy mavqeい shu feodallar qo`lidagi yerning miqdori bilan belgilanadigan bo`lib qoldi. Bu jarayon tarixchilar tomonidan quyidagi shaklda ta`riflanadi: “tarixiy davlatlarning ko`pchiligidagi fuqarolarga beriladigan huquqlar ular qo`lidagi mulkning katta-kichikligiga qarab belgilanadi”.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib Xiva xonligida vujudga kelgan chuqur siyosiy inqiroz mamlakatning butun xo`jalik va madaniy hayotini izdan chiqarib yubordi. Bundan tashqari Buxoro amirligining Xiva xonligi ishlariga aralashishi, ko`chmanchi qabilalarning hujumlari, Eron shahi Nodirshohning biroz muddat Xiva xonligini bosib olishi siyosiy inqirozini kuchaytirib yubordi.

XVIII asrning 70-yillariga kelib, hokimiyatga yirik yer egalaridan bo`lgan, o`zbek qabilalaridan qo`ng`irotlar sulolasi vakillarining kelishi ko`chmanchilar va Xiva dehqonlari o`rtasida savdo-sotiq aloqalarining rivojlanishi uchun zamin hozirladi. Shunday bo`lsada kambag`allar va boylar o`rtasida qarama-qarshiliklar zo`raydi. Yirik yer egaligi o`sishi savdo-sotiqning ko`payishiga sababchi bo`ldi; bu esa feodallarning iqtisodiyotining yanada mustahkamlanishiga yordam berdi. Bu holat eski davlat muassasalarini yemirib yangi siyosiy muassasalarni vujudga keltirishni talab qilar edi. Qo`ng`irotlar sulolasi davriga kelib Xivada markazlashgan feodal davlat qayta tiklanishi va mustahkamlanishini iqtisodiy taraqqiyotning ehtiyojlarini talab qildi. Bu talab Muhammad Rahimxon va undan keyin kelgan sulola namoyondalari davrida amalga oshirildi.

Nikita Muravyev Muhammad Rahimxon davri haqida quyidagicha fikr bildiradi “U butunlay yangi davlat barpo qildi deyish mumkin, endilikda bu davlat Osiyodagi eng kuchli xonliklar sirasiga kiradi”[4]

Ijtimoiy o`zgarishlarni Muhammad Rahimxon rasmiylashtirib bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Unga ko`ra: kentlar tugatildi, aholini har bir mchit qavmiga bo`lish tartibi aholi o`rtasidagi ma`muriy bo`linishning asosi bo`lib qoldi. Ba`zi hududlarda kentlar saqlanib qolinishi va shu hududlarda noiblarning hukmronligi davom etishiga sabab bo`ladi. Endi bu davrga kelib noiblar har urug`ning o`zidan tayinlanadigan bo`ladi.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshida Xiva xonligining o`troq holi yashaydigan hamma qismida aholini idora qilishning yangi formasi mustahkam qaror topgan edi. Bu yangi forma ilgarigi formadan, ya`ni “urug`larga” xos formadan butunlay farq qilar edi. Yangi formaning mustahkam bo`lib o`rnashganligi urug` va kentlar

formasining xo`jalik-ma`muriy forma tariqasida ham, egalik qilish formasi tariqasida ham uzil-kesil tugatilganligidan dalolat beradi.

Xiva xonligida XIX asr yer egaligi ko`rinishi quydagicha bo`lib, yerkarning eng ko`p qismi xuusiy kishilarga qarashli mulklar edi. Bundan tashqari, vaqf yerkari, so`ngra esa davlat yerkari yoki podsholik yerkaridan iborat edi.

Soliq tizimida esa mulklar asosan uch kategoriyaga bo`lingan: 5 tanobgacha yeri bo`lganlar pastki kategoriyadagi dehqonlar bo`lib, bunday dehqonlarni adno deb ataganlar. 5-10 tanob yeri bo`lganlar o`cta hol hisoblanib, ular avsat deb, 10 tanobdan ortiq yeri bo`lganlar boy dehqonlar hisoblanib, ular a`lo deb atalar edi. Lekin bu yer kategoriyalarga bolinishi dehqonlarning kambag`al, o`cta hol va boy dehqonlar deb atalishi uchun asos bola olmaydi. Chunki o`cta hisobda 20 tanob yeri bo`lgan a`lolarnigina boy dehqon deb hisoblash mumkin edi.

Shuni aytib o`tmoq kerakki, bevosita ishlab chiqaruvchi – dehqonlar tabaqasini klassifikatsi ya qilishda hozirgacha tartibsizlik hukm suradi. Bu tartibsizlikning qay darajada ekanligini ko`rsatmoq uchun Muhammadjon Yo`ldashevning “Xiva xonligida feudal yer egaligi va davlat tuzilishi”[5] asariga murojaat qildik.

Yuqorida ko`rsatib o`tganimizdek, xususiy eri bo`lgan xo`jaliklar pul solig`i yuzasidan uch gruppaga: adno, avsat va a`loga bo`lingan.

Ikkinchidan, barcha yersiz dehqonlar ijarador, batrak yoki mardikorga bo`lingan. Ijaraga olinadigan yerkari turiga qarab yersiz dehqonlar shunday nomlangan: bevatan – davlat yerkarini ijaraga oluvchilar, koranda – xuxusiy yerkarni ijaraga oluvchichilar, vaqfkor – vaqf yerkarini ijaraga oluvchilar.

Xususiy yer egalari soliqdan ozod bo`lib, ijaradorlar soliq to`laganlar. Batraklar yo ozod bo`lishlari, yoki butun umr qarzdor bo`lib, tutqun qarol bo`lishlari mumkin edi. Biroq dehqonning “erki” har holda shartli bo`lgan. Dehqonlar qul tarzida sotilmagan, ammo yerga biriktirilgan tarzda sotilishi mumkin edi.

Xiva xonligidagi yer mulkchiligi munosabatlari haqida shuni xulosa qilish mumkinki, XIX asrda Xiva xonligi feudal yer egaligiga asoslangan mamlakat bo`lib, bu yerkarning asosiy qismi ozchilik yirik yer egalari qo`lida toplangani va bu jarayon qisqa vaqt ichida sodir bo`lgan edi. Xiva xonligida davlat yerkari machit va boshqa yerkarga qaraganda kam edi. Xiva xonligida asosiy ishlab chiqaruvchi kuch – yersiz dehqonlar edi. Ijaraga olingan yerning turiga qarab ijarachilar uch turga: bevatan, koranda, vaqfkorga ajratilgan. Soliq solish sistemasi ham aniq sinfiy harakterga ega bo`lib asosiy soliqni 11 tanobgacha yeri bo`lgan mayda yer mulkdorlariga va ijaradorlar to`lar edi. Yuqorida keltirib o`tilgan ma`lumotlarimiz xiva xonligining davlat sifatida iqtisodiy va sinfiy tuzilishi haqida tasavvur hosil qilishimizga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. А.Кун, Архив ИВ АН, фонд 33, 7-8-варақ
2. Мунис, СССР Фанлар Академияси Шарқшунослик институтидаги қўлёзма, 114-б
3. В. Бартольд, История культурной жизни Туркестана, Л., 1927 102-103-б
4. Н.Н. Муравьев, «Путешествие в Туркмению и Хиву», ч. II, 44-б
5. М.И. Йўлдашев, Хива хонлигига феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши, Ўз ССР, Т., 1959